

**O'QUVCHILARNI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA
YO'NALТИРИШ USULLARI
(PISA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTI ASOSIDA)**

Kamshat Baymenova

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti

Камшат Байменова

Каракалпакского Государственного Университета имени Бердаха Ассистент кафедры узбекского языка и литературы

Kamshat Baymenova

Karakalpak State University named after Berdakh Assistant of the Department of Uzbek Language and Literature

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: PISA, baholash, xalqaro tadqiqot, bilim, ko'nikma, og'zaki nutq, yozma nutq, o'qish savodxonligi, matn.

Annotatsiya

Mazkur maqolada PISA xalqaro baholash tadqiqotining ta'limgasifati uchun ahamiyati borasida so'z yuritiladi. Xususan, PISA tadqiqoti o'quv jarayoniga zamonaviy usullarni olib kirish, ta'limgasifatlarda kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi haqida atroficha tatbiq qilingan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Dunyoning rivojlangan davlatlari amaliyotida yosh avlod tafakkurini, intellektini rivojlantirish o'z-o'zidan mavjud pedagogik shart-sharoitlar, metod va usullar bilan emas, balki yangi innovatsion g'oyalar, shuningdek, ta'limgasifatining rivojlanish bosqichidagi eng so'nggi yutuqlar orqali amalga oshirilmoqda. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, intellektini boyitish jahonning yetakchi davlatlarida turlicha amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz yangi innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarning intellektual salohiyati va fikrlash qobiliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'limgasifatining standari asosida shakllantirish hamda xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida O'zbekistonda ta'limgasifatining monitoringini yangicha xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash tizimi shakllantirilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari deganda PISA,

¹ Ta'limgasifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma.-T.:2019.

PIRLS, TIMSS kabi dasturlar tushuniladi². Shu bois ta’lim sifatini baholash bo‘yicha PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish mamlakatimiz xalq ta’limi tizimi oldida turgan dolzARB vazifalardan biriga aylangan. Mana shu dasturlar orasida PISA tadqiqoti o‘quv jarayoniga zamонавиу usullarni olib kirish, ta’lim oluvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. O‘zbekiston hukumatining 2018-yil 8-dekabrdagi qaroriga binoan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

PISA tizimi o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib, dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko‘rinishida baholashdan iborat. O‘zbekistonda ham yuqorida sanab o‘tgan uchta yo‘nalish bo‘yicha qatnashishi rejalashtirilgan. PISA dasturiga qatnashishdan maqsad yurtimizda testlarni o‘tkazish emas, balki farzandlarimizda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish, intellektual kadrlarni tayyorlash uchun zamin hozirlashdir.

Hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innoavatsion potensialni takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy o‘sishning eng muhim omillari hisoblanmoqda. Mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko‘plab davlatlari va xalqaro tashkilotlar uchun dolzarbdir. SHu munosabat bilan innovatsion rivojlanishning darajasini tezkor va ishonchli tahlil qilishga mo‘ljallangan baholash tizimi mavjudligi katta ahamiyatga ega.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgan islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi etakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashni ta’minlaydigan zamонавиу innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Umumta’lim maktablarida PISA tadqiqotini amalda sinash ham mana shu maqsadga yo‘naltirilgan desak aslo mubolag‘a emas.

Ayni damda PISA tadqiqoti doirasida quyidagilar tadqiq etiladi:

Yoshlar kelajakda o‘zлari duch keladigan qarama-qarshiliklarlarga qay darajada tayyor?

O‘quvchilar ziddiyatlar sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash hamda o‘z g‘oyalarini taqdim etishga tayyormi?

O‘quvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini real hayotga qay darajada tatbiq etish qobiliyatiga ega?³

PISA – o‘quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olish qobiliyat, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqoqt qilish imkoniyatlarini o‘rganadi. Bunda savollarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda o‘quvchilar “javob to‘liq qabul qilinadi”, “javob qisman qabul qilinadi”, “javob qabul qilinmaydi” mezonlari bo‘yicha baholanadi.

PISA baholash dasturi orqali yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, quyidagi muammolar tadqiq etiladi:

- yoshlarimiz kelajak hayotlarida duch kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni yengib o‘tishga qanchalik tayyorligi;
- o‘quvchilarning yuzaga kelgan muammo sabablari va yechimlarni tahlil qilish, izlash, aniqlash va o‘z g‘oyalarini taqdim eta olish qobiliyatiga egaligi;
- O‘quvchilarning olgan bilim, KO‘nikmalarini real hayotiy vaziyatda qo‘llay olish qobiliyatiga egaligi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF- 4947-sон Farmonni.– O‘zbekiston Respublikasi qонун hujjatlari to‘plami, 2017-y.

³ Sh.Sh.Yuldasheva. Ona tili fanidan PISA topshiriqlari. Oquv qo‘llanma.-T.:”Innovatsion-Ziyo” 2020, 22-b.

PISAning asosiy maqsadi matabni tugatgandan so‘ng o‘quvchilar faol hayotiy pozitsiyani egallahlariga imkon beradigan chuqur bilimga egalik darajasini baholashdir. O‘quvchilar tayyorgarligini baholash uch yo‘nalishda (o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik) bo‘yicha amalga oshiriladi. Bularning har biri ma’lum bir o‘quv faniga mos keladi. Asosiy e’tibor esa asosiy tushunchalarini anglashiga, yuqorida ko‘rsatilgan uch yo‘nalish doirasida o‘rganilayotgan asosiy usullarni egallahlariga va o‘z bilimlarini turli vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatiga qaratiladi.

PISA dasturiga qatnashishdan maqsad testlarni o‘tkazish yoki testga tayyorlash emas, o‘quvchilarimizda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi. Mamlakat rahbarining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida: “Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritish, ya’ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”, - degan muhim fikr o‘rtaga tashlandi. Darhaqiqat, bu umumiyl o‘rta ta’lim va boshqa bosqichlardagi ta’lim, eng muhimi kelajagimizga poydevorning mustahkam bo‘lishi demakdir⁴.

O‘zbekiston ta’lim tizimi ko‘p yillar davomida bolalar xotirasini sinashga urg‘u berib kelgan, PISA esa buning butunlay teskarisi: olingan bilimning amaliyotda qay darajada qo‘llay olishini tekshiradi⁵. Shu bois ham bugungi kunda PISA tadqiqoti asosida baholash, uni tatbiq qilish asosiy muammolardan sanaladi.

Umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish, topshiriqlarini bajarish orqali ijobjiy, mantiqiy, tanqidiy fikrlash va hayotiy muammolarini hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlanantirish, shuningdek, PISA tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rish muhim omil sanaladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, har bir PISA topshirig‘ini o‘rganayotgan vaqtida oldin unga oid tayanch bilimlarni faollashtirish, o‘quvchilarini bu topshiriqni echishga tayyorlash lozim bo‘ladi. Mutaxassislar tomonidan PISA tadqiqotlarining ochiq topshiriqlarini atroflicha o‘rganish, shu topshiriqlarga o‘xshash yoki ularni echishga yordam beradigan topshiriqlarni ishlab chiqish zarurdir. PISA topshiriqlariga qo‘yiladigan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o‘quvchilarga yordam berish o‘rniga, ularni chalg‘itib qo‘yishi ham mumkin. Shuning uchun PISA sinovlariga o‘quvchilarini tayyorlash jarayonida, asosiy e’tiborni alohida olingan PISA topshiriqlarini echishga emas, balki ularni va ularga o‘xshagan topshiriqlarni echish uchun kerak bo‘ladigan o‘quvchilarning umumiyl tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Darhaqiqat, PISA testlari hayotiy rivojlanish va o‘zgarishlarni ta’lim tizimida aks ettirish, mifik o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotgani, ta’lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

PISAning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu – o‘qish savodxonligi bo‘lib, bu insonning matn shaklida berilgan ma’lumotlarni tushuna olish ko‘nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o‘qigan ma’lumotlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqatidir.

Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O‘zbekistonga nima beradi? Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.-Т.:”Ўзбекистон” НМИУ, 2018.-88б.

⁵ Файбуллаев З. Ўқувчига ёдлашни эмас, фикрлашни ўргатиш керак”-эксперт PISA синовига тайёргарлик ҳакида.

Darvoqe, bu yo‘nalish maqsadi o‘quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo‘llanmalar, geografik xaritalar kabi rang-barang mavzudagi, tarkibida matnni ochib berishga mo‘ljallangan diagrammalar, rasmlar, jadvallarni tushunish, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho bera olish va o‘qiganligi haqida o‘z fikrini bildira olish kabi kompetensiyalarni aniqlash hisoblanadi. Bundan tashqari ta’lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo‘llaniladi. Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, O‘zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta’lim sifatini baholashdagi nazorat materiallari xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra o‘qish savodxonligi nafaqat ta’lim tizimi uchun, balki boshqa sohalar uchun ham muhim. Chunki shaxs kelajakda qaysi sohani tanlashidan qat’iy nazar o‘qish savodxonligi yutuqlarga erishish poydevori bo‘ladi. O‘quvchining kitob o‘qish qobiliyatiga e’tibor qaratish, jumladan, uning ma’lumotni tanlash, tushunish, talqin qilish va baholash xalqaro tadqiqotlarning, xususan, PISA tadqiqotining asosiy maqsadlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.-Т.:”Ўзбекистон” НМИУ, 2018.
2. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo‘llanma.-T.:2019.
3. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti www.markaz.tdi.uz
4. PISA for development assessment and analytical framework: reading, mathematics and science © OECD 2018
5. Международный координационный центр исследования TIMSS – <http://timss2015.org/>.
6. A.B.Radjiev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Tog‘ayeva, «O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi», Qo‘llanma, 2019-yil
7. Sh.Sh.Yuldasheva. Ona tili fanidan PISA topshiriqlari. Oquv qo‘llanma.-T.:”Innovatsion-Ziyo” 2020
8. Файбуллаев З. Ўқувчига ёдлашни эмас, фикрлашни ўргатиш керак”-эксперт PISA синовига тайёргарлик хақида